

**DAVLAT MULKINI TALON-TAROJ QILISH BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNI
ANIQLASH VA TERGOV QILISHDA SUD-IQTISODIY EKSPERTIZASINING O'RNI:
MUAMMOLAR VA ULARNING OLDINI OLISH YO'LLARI**

Saidmuxamedova Lola Bahodir qizi

Respublika Sud Ekspertiza Markazi

Sud-Iqtisodiy ekspertizasi bo'limi katta eksperti

Abdujabborov Xasan Botirali o'g'li

Respublika Sud Ekspertiza Markazi

Toshkent viloyati bo'limi ish o'rganuvchi eksperti

Annotatsiya: Mazkur maqolada davlat mulkini talon-taroj qilishga olib keluvchi iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy omillar tahlil qilingan. Davlat mulkining iqtisodiy taraqqiyot va jamiyat farovonligidagi o'rni yoritilib, uning noqonuniy o'zlashtirilishi oqibatida yuzaga keladigan salbiy holatlar o'rganilgan. Tadqiqot davomida korrupsiya, nazorat tizimlarining sustligi, huquqiy bo'shliqlar hamda moliyaviy nazoratning yetarli darajada samarali emasligi davlat mulkiga zarar yetkazuvchi asosiy omillar sifatida baholandi. Shuningdek, davlat mulkini talon-taroj qilish bilan bog'liq huquqbuzarliklarni aniqlashda sud-iqtisodiy ekspertizasining ahamiyati tahlil qilindi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, davlat mulkini muhofaza qilish samaradorligini oshirish uchun raqamli nazorat tizimlarini joriy etish, ichki audit mexanizmlarini takomillashtirish, shaffoflikni ta'minlash va korrupsiyaga qarshi kurash choralarini kuchaytirish zarurligi asoslandi.

Kalit so'zlar: davlat mulki, talon-taroj, korrupsiya, sud-iqtisodiy ekspertizasi, sud-buxgalteriya ekspertizasi, iqtisodiy jinoyatlar, moliyaviy nazorat, shaffoflik, audit, davlat budjeti.

Kirish

Davlat mulki har qanday mamlakat iqtisodiy tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Davlat korxonalari, budget mablag'lari, yer va tabiiy resurslar, infratuzilma obyektlari hamda boshqa davlat aktivlari mamlakat taraqqiyoti va aholi farovonligini oshirishga xizmat qilishi lozim. Shu sababli davlat mulkidan oqilona va samarali foydalanish, uni noqonuniy o'zlashtirish hamda talon-taroj qilish holatlarining oldini olish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.



O'zbekiston Respublikasi "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasiga asosan, sud ekspertizasi fuqarolik, xo'jalik, jinoyat va ma'muriy sud ishlarini yuritishda ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlarni aniqlashga qaratilgan hamda sud eksperti tomonidan fan, texnika, san'at yoki hunar sohasidagi maxsus bilimlar asosida sud-ekspert tekshiruvlarini o'tkazish va xulosa berishdan iborat protsessual harakat hisoblanadi. Mazkur institut huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga huquqiy baho berish va odil sudlovni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng iqtisodiyotdagi markazlashtirilgan ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan voz kechib, bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan yangi iqtisodiy munosabatlarni shakllantirish yo'lini tanladi. Ushbu jarayonda barcha mulk shakllarining tengligi, xususiy mulkning daxlsizligi hamda mulk huquqlarining ishonchli himoyasini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilandi. Chunki har qanday demokratik jamiyatda insonning hayoti, sog'lig'i, sha'ni va qadr-qimmatini bilan bir qatorda uning mulkiy huquqlarini himoya qilish ham eng muhim ijtimoiy qadriyatlardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida mulkchilik munosabatlari Konstitutsiya, Fuqarolik kodeksi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Xususan, Konstitutsiyaning 65-moddasida O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakldagi mulk tashkil etishi, davlat bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratishi, barcha mulk shakllarining teng huquqliligi hamda huquqiy himoyasi kafolatlanishi belgilab qo'yilgan. Shuningdek, xususiy mulkning daxlsizligi e'tirof etilib, mulkdor qonunda nazarda tutilgan hollardan tashqari o'z mol-mulkidan mahrum etilishi mumkin emasligi mustahkamlangan.

Davlat mulki tarkibiga yer, yer osti boyliklari, ichki suvlar, havo havzasi, o'simlik va hayvonot dunyosi, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining mol-mulki, davlat ahamiyatiga ega korxonalar, ijtimoiy-madaniy obyektlar hamda mamlakat iqtisodiy mustaqilligini ta'minlovchi boshqa aktivlar kiradi. Mazkur obyektlar nafaqat iqtisodiy qiymatga, balki strategik va ijtimoiy ahamiyatga ham ega bo'lib, ularning saqlanishi va samarali boshqarilishi davlatning barqaror rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, davlat budjeti ham davlat mulkining muhim tarkibiy qismi sifatida e'tirof etiladi. Davlat budjeti davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, mudofaa, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa ko'plab vazifalarini amalga oshirishda asosiy moliyaviy manba hisoblanadi. Shu sababli budjet



mablag'larini talon-taroj qilish, maqsadsiz sarflash yoki ularga zarar yetkazish davlat manfaatlariga qarshi qaratilgan og'ir iqtisodiy huquqbuzarlik sifatida baholanadi.

Bugungi kunda globallashuv jarayonlari, iqtisodiy munosabatlarning murakkablashuvi va moliyaviy operatsiyalar hajmining ortib borishi davlat mulkini boshqarish tizimiga yangi talablarni qo'yimoqda. Biroq amaliyotda korrupsiya, mansab vakolatlarini suiiste'mol qilish, ichki nazorat va audit tizimlarining yetarli darajada samarali ishlamasligi, huquqiy bo'shliqlar hamda shaffoflik darajasining pastligi davlat mulkini talon-taroj qilish holatlariga sabab bo'lmoqda. Bunday jinoyatlar davlat budjetiga katta miqdorda zarar yetkazish bilan birga, iqtisodiy xavfsizlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi, investitsion muhit jozibadorligini pasaytiradi va fuqarolarning davlat organlariga bo'lgan ishonchini susaytiradi.

Davlat mulkini talon-taroj qilish bilan bog'liq jinoyatlarni aniqlash va tergov qilishda sud-iqtisodiy ekspertizalar muhim o'rin egallaydi. Iqtisodiy jinoyatlarni aniqlash va ularga obyektiv baho berish maxsus iqtisodiy bilimlarni talab qiladi. Shu sababli sud-iqtisodiy ekspertizasi xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyati, buxgalteriya hujjatlari, statistika va tezkor hisob ma'lumotlarini o'rganish orqali huquqbuzarliklarning mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

Sud-iqtisodiy ekspertizalar tarkibiga:

- ☐ Sud-buxgalteriya ekspertizasi.
- ☐ Sud-moliya-kredit ekspertizasi.
- ☐ Sud-rejali-iqtisodiy ekspertizasi.
- ☐ Sud-iqtisodiy-statistik ekspertizasi.
- ☐ Sud-mehnat iqtisodi ekspertizasi.
- ☐ Tashqi savdo faoliyatining sud-iqtisodiy ekspertizasi
- ☐ Sud-soliq ekspertizasi.
- ☐ Bank sohasida boy berilgan foydani aniqlash sud-iqtisodiy ekspertizasi.
- ☐ Intelektual mulk sihasida sud iqtisodiy ekspertizasi.

kabi yo'nalishlar kiradi. Ular orasida sud-buxgalteriya ekspertizasi iqtisodiy jinoyatlar, xususan davlat mulkini talon-taroj qilish bilan bog'liq holatlarni aniqlashda eng ko'p qo'llaniladigan ekspertiza turi hisoblanadi. Mazkur ekspertiza orqali pul mablag'lari va tovar-moddiy boyliklarning haqiqiy mavjudligi, buxgalteriya hisobi qoidalariga rioya etilishi hamda moliyaviy hujjatlardagi buzilishlar aniqlanadi.



Mazkur maqolaning maqsadi davlat mulkini talon-taroj qilishga olib keluvchi asosiy sabablarni ilmiy jihatdan tahlil qilish, sud-iqtisodiy ekspertizasining ushbu turdagi huquqbuzarliklarni aniqlashdagi o'rnini yoritish hamda davlat mulkini muhofaza qilish samaradorligini oshirishga qaratilgan amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda davlat mulkini talon-taroj qilishga olib keluvchi sabablar, ularning namoyon bo'lish shakllari hamda oldini olish mexanizmlarini aniqlash maqsadida kompleks ilmiy yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va amaliy ma'lumotlarni tahlil qilishga asoslangan sifat usullari qo'llanildi.

Tadqiqotning huquqiy va nazariy asosini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining “Sud ekspertizasi to'g'risida”gi Qonuni, “Davlat mulkini boshqarish to'g'risida”gi Qonuni, Jinoyat kodeksi hamda iqtisodiy jinoyatlar va korrupsiyaga qarshi kurashishga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etdi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi “Sud ekspertizasi to'g'risida”gi Qonunining 3-moddasiga muvofiq sud ekspertizasi fuqarolik, xo'jalik, jinoyat va ma'muriy ishlarni yuritishda ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlarni aniqlash maqsadida maxsus bilimlar asosida o'tkaziladigan protsessual harakat sifatida baholandi.

Tadqiqot davomida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish usuli yordamida davlat mulkini talon-taroj qilishning iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy sabablari o'rganildi. Qiyosiy-huquqiy tahlil usuli orqali davlat mulkini muhofaza qilish va iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashishga oid milliy hamda xorijiy qonunchilik normalari solishtirildi. Tizimli tahlil usuli asosida davlat mulkini talon-taroj qilishga sabab bo'luvchi omillar korrupsiya, nazorat tizimidagi kamchiliklar, mansab vakolatlarini suiiste'mol qilish, moliyaviy nazoratning sustligi va huquqiy bo'shliqlar kabi guruhlariga ajratilib tadqiq qilindi.

Tadqiqotda sud-iqtisodiy ekspertizasining amaliy imkoniyatlaridan ham metodologik manba sifatida foydalanildi. Ma'lumki, iqtisodiy jinoyatlarni aniqlash va tergov qilish maxsus iqtisodiy bilimlarni talab etadi. Shu sababli xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyati, buxgalteriya hisobi hujjatlari, statistika va tezkor hisob ma'lumotlarini tahlil qilishga alohida e'tibor qaratildi.

Davlat mulkini talon-taroj qilish holatlarini aniqlashda sud-iqtisodiy ekspertizasining turli yo'nalishlari, jumladan sud-buxgalteriya ekspertizasi, sud-soliq ekspertizasi, sud-moliya-kredit ekspertizasi va sud-iqtisodiy-statistik



ekspertizalarining nazariy va amaliy imkoniyatlari o'rganildi. Ayniqsa, sud-buxgalteriya ekspertizasining davlat mulkini noqonuniy o'zlashtirish bilan bog'liq holatlarni aniqlashdagi ahamiyati tahlil qilindi. Bunda buxgalteriya hisobi hujjatlari, inventarizatsiya dalolatnomalari, kirim-chiqim hujjatlari, moliyaviy hisobotlar, taftish va tekshiruv materiallari hamda boshqa iqtisodiy hujjatlar tadqiqot obyekti sifatida ko'rib chiqildi.

Olingan ma'lumotlar umumlashtirish va mantiqiy tahlil usullari yordamida tizimlashtirildi hamda davlat mulkini talon-taroj qilishning oldini olishga qaratilgan ilmiy asoslangan xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta'minlash maqsadida turli ilmiy manbalar, amaldagi qonunchilik hujjatlari va sud ekspertizasi amaliyotiga oid ma'lumotlar o'zaro taqqoslandi.

Mazkur metodologik yondashuv davlat mulkini talon-taroj qilishning asosiy sabablarini kompleks ravishda tahlil qilish, iqtisodiy jinoyatlarni aniqlashda sud-iqtisodiy ekspertizasining rolini baholash hamda ushbu turdagi huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish imkonini berdi.

Natijalar

Tadqiqot natijalari davlat mulkini talon-taroj qilish holatlari ko'pincha bir-biri bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy omillar ta'sirida yuzaga kelishini ko'rsatdi.

Birinchidan, korrupsiya davlat mulkini talon-taroj qilishning asosiy sabablaridan biri ekanligi aniqlandi. Mansabdor shaxslarning xizmat vakolatlarini suiiste'mol qilishi davlat aktivlarining noqonuniy ravishda o'zlashtirilishiga imkon yaratadi.

Ikkinchidan, ichki nazorat va audit tizimlarining yetarli darajada samarali emasligi moliyaviy intizom buzilishlariga olib kelmoqda. Moliyaviy hisobotlarning to'liq yuritilmasligi va nazoratning sustligi ayrim mablag'larning yashirin ravishda o'zlashtirilishiga sharoit yaratmoqda.

Uchinchidan, davlat mulkini boshqarish sohasidagi ayrim huquqiy bo'shliqlar va javobgarlik mexanizmlarining yetarli darajada samarali ishlamasligi huquqbuzarliklar sodir etilishiga imkon bermoqda.

To'rtinchidan, davlat organlari va korxonalarida shaffoflik darajasining pastligi hamda jamoatchilik nazoratining cheklanganligi talon-taroj holatlarining yashirin qolishiga sabab bo'lmoqda.

Tadqiqot davomida sud-iqtisodiy ekspertizalarining iqtisodiy jinoyatlarni aniqlashdagi o'rni ham tahlil qilindi. Xususan, sud-buxgalteriya ekspertizasi



buxgalteriya hujjatlari, inventarizatsiya dalolatnomalari, moliyaviy hisobotlar va boshqa iqtisodiy hujjatlar asosida davlat mulkiga yetkazilgan zarar miqdorini aniqlash imkonini berishi aniqlandi. Bu esa huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Mazkur tadqiqot natijalari davlat mulkini talon-taroj qilish iqtisodiy xavfsizlikka, davlat budjetining barqarorligiga hamda jamiyatning davlat institutlariga bo'lgan ishonchiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi dolzarb muammolardan biri ekanligini tasdiqladi. Tahlillar natijasida davlat mulkini talon-taroj qilishning asosiy sabablari sifatida korrupsiya holatlarining mavjudligi, ichki nazorat va audit tizimlarining yetarli darajada samarali faoliyat yuritmasligi, huquqiy tartibga solishdagi ayrim kamchiliklar, shaffoflik darajasining pastligi hamda mansab vakolatlarini suiiste'mol qilish holatlari aniqlandi.

Davlat mulki davlatning iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan mol-mulklar va mulkiy huquqlar majmuasidan iborat bo'lib, unga zarar yetkazish yoki uni talon-taroj qilish bevosita davlat manfaatlariga, bilvosita esa jamiyat va aholi farovonligiga zarar yetkazadi. Ayniqsa, davlat budjeti mablag'larining noqonuniy o'zlashtirilishi yoki maqsadsiz sarflanishi davlat dasturlarining samarali amalga oshirilishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi hamda iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini sekinlashtiradi.

Tadqiqot davomida davlat mulkini talon-taroj qilish bilan bog'liq jinoyatlarni aniqlash va ularga huquqiy baho berishda sud-iqtisodiy ekspertizasining muhim o'rni mavjudligi aniqlandi. Iqtisodiy jinoyatlar ko'pincha murakkab moliyaviy va xo'jalik operatsiyalari bilan bog'liq bo'lganligi sababli ularni aniqlash maxsus iqtisodiy bilimlarni talab etadi. Shu jihatdan sud-iqtisodiy ekspertisasi huquqni muhofaza qiluvchi organlar va sudlar uchun muhim isbotlash vositalaridan biri hisoblanadi.

Sud-iqtisodiy ekspertizasining tarkibiy qismi bo'lgan sud-buxgalteriya ekspertisasi davlat mulkini talon-taroj qilish, mablag'larni noqonuniy o'zlashtirish va boshqa iqtisodiy huquqbuzarliklarni aniqlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur ekspertiza yordamida buxgalteriya hisobi hujjatlari, moliyaviy hisobotlar, inventarizatsiya materiallari va boshqa iqtisodiy hujjatlar tahlil qilinib, davlat mulkiga yetkazilgan zarar miqdori hamda huquqbuzarlik mexanizmlari aniqlanadi. Bu esa tergov va sud organlariga obyektiv va asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini yaratadi.



Olingan natijalardan kelib chiqib, davlat mulkini talon-taroj qilishning oldini olish maqsadida davlat aktivlari va budget mablag'lari harakatini to'liq raqamlashtirish, ichki audit va moliyaviy nazorat tizimlarini takomillashtirish, davlat xaridlarida ochiqlik va shaffoflikni oshirish, korrupsiyaga qarshi profilaktik mexanizmlarni kuchaytirish hamda sud ekspertizasi tizimini yanada rivojlantirish zarur deb hisoblanadi.

Shuningdek, sud-iqtisodiy ekspertlarining kasbiy salohiyatini muntazam oshirib borish, zamonaviy axborot texnologiyalari va raqamli tahlil vositalarini ekspertiza amaliyotiga keng joriy etish iqtisodiy jinoyatlarni o'z vaqtida aniqlash va ularning oldini olish samaradorligini yanada oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, davlat mulkini muhofaza qilish va uning daxlsizligini ta'minlash davlat organlari, huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalar, sud ekspertizasi muassasalari hamda fuqarolik jamiyatining o'zaro hamkorligini talab qiladigan kompleks jarayondir. Ushbu yo'nalishda samarali huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarning joriy etilishi davlat mulkidan oqilona foydalanish, budget mablag'larining saqlanishi va mamlakat iqtisodiy taraqqiyotini yanada jadallashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2024.
3. O'zbekiston Respublikasining “Sud ekspertizasi to'g'risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2010.
4. O'zbekiston Respublikasining “Davlat mulkini boshqarish to'g'risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2021.
5. O'zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2017.
6. O'zbekiston Respublikasining “O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida”gi Qonuni. – Toshkent, 1990.
7. Rustamboyev M.X. Jinoyat huquqi. Maxsus qism. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2022.
8. Zokirov I.B. Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashning huquqiy asoslari. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2021.
9. Ismailov B.I. Korrupsiyaga qarshi kurash: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Adolat, 2020.



10. Astanakulov O.X. Davlat mulkini boshqarish va undan samarali foydalanishning huquqiy masalalari // Yurisprudensiya. – 2022. – №3. – B. 45–52.
11. Karimov B.A. Sud-buxgalteriya ekspertizasining nazariy va amaliy asoslari. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2021.
12. Toshmatov A.A. Sud-iqtisodiy ekspertizasini tayinlash va o'tkazishning dolzarb masalalari // Huquq va burch. – 2023. – №4. – B. 58–65.
13. United Nations. Convention against Corruption. – New York, 2004.
14. United Nations Office on Drugs and Crime. Handbook on Corruption and Economic Crime Prevention. – Vienna, 2020.
15. Transparency International. Corruption Perceptions Index Reports. – Berlin, 2023.
16. The World Bank. Enhancing Government Effectiveness and Transparency: The Fight Against Corruption. – Washington, 2020.
17. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). Public Integrity Handbook. – Paris, 2021.
18. International Federation of Accountants (IFAC). Handbook of International Public Sector Accounting Pronouncements. – New York, 2022.
19. Akmalov X., Yuldashev A. Iqtisodiy jinoyatlarni aniqlashda sud ekspertizasining o'rni // Odil sudlov. – 2022. – №2. – B. 34–40.
20. Respublika Sud Ekspertiza Markazi materiallari va sud-iqtisodiy ekspertiza amaliyoti ma'lumotlari. – Toshkent, 2024–2025.

